

## YANGI O'ZBEKISTON MA'RIFATLI JAMIYATNI YARATISHDA YOSHLARNING O'RNI



### Abstract:

Ushbu maqolada ko'hna diyorimiz O'zbekistonda ma'rifatli jamiyatni barpo etishda yurtimiz kelajagi hisoblanmish, biz yoshlarga yaratib berilayotgan imkoniyatlar va biz yoshlarning vazifalari haqida so'z yuritilgan.

### Key words:

#### Author of the article:

**NILUFAR RAXMATOVA**

#### Workspace (Education subject)

**DAVLAT IQTISODIYOT  
UNIVERSITETI SIRTQI TA'LIM 2-  
KURS TALABASI**

Ma'naviyat va ma'rifat barcha zamonlarda tengsiz qudrat, baxt-saodat, tinchlik, buniyodkorlik, hamjihatlik, ruhiy poklanish va qalbni yuksaltiruvchi ne'mat bo'lib kelgan. Chunki u millatni, xalqni, demakki, insonlarni yuksak fazilatlar, kamolotga yo'llovchi ahloqiy mezonlar asosida yashashga, xudbinlik, g'aflat asiriga aylanmay hamisha yaxshilik yo'lida bedor bo'lishga, bu olamni obod qilishga, go'zallikka burkashga chorlagan, shuningdek, jamiyatni halokatdan qutqaruvchi, rivojlantiruvchi asosiy manba ham ilm-ma'rifatdir. Darhaqiqat, ta'lim-tarbiya, ilm-fan, ma'naviyat va ma'rifat masalasi insoniyatning umri davomidagi ijtimoiy zaruriyat sanaladi. Bu masalalar hayot bilan, jamiyat bilan, rivojlanish bilan o'zaro hamohang bo'lgani, biri ikkinchisini taqozo qilgani bois, Yangi O'zbekistonda ma'rifatli jamiyatni bunyod etishimizda yurtimizning porloq yulduzлari hisoblanmish biz yoshlarning ilm-fan, ma'naviyat va ma'rifat kabi barcha soha mukammal o'zlashtirib, uni amalda qo'llay bilishimiz muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma'rifatli jamiyatni barpo etishda ko'hna diyorimizda tug'ilib, voyaga yetayotgan har bir o'g'il-qiz o'z hissasini qo'shmoq'i lozim, negaki bugungi kunda rivojlangan mamlakatlar qatorida yuqori o'rirlarni egallab borayotgan davlatimiz biz yoshlар, ko'hna O'zbekiston yulduzлari uchun barcha sharoitlarni har qanday soha bo'lishidan qat'iy nazar yaratmoqda. Bundan tashqari, yoshlarning jamiyatda tutgan o'rni, moddiy ahvoli va oilaviy sharoitlariga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Shuni ham ta'kidlash joizki, yoshlарimizning oilaviy ahvollarini bilish, ular bilan har tomonlama ishlash va yordam berish maqsadida mahallalar bilan olib borilayotgan ishlarni ham alohida aytib o'tish kerak. Davlatimiz budgetidan yordamga muhtoj oilalarga ajratilayotgan yordam pullarini ham buning dalili sifatida keltirishimiz mumkin. Negaki, yoshlarni kelajak uchun kerakli inson qilib tarbiyalashda oiladagi muhitning ahamiyati katta. Qachonki oila mustahkam bo'lsa, jamiyat ham farovon bo'la oladi. Bundan ko'rindaniki, ma'rifatli jamiyatni qurishimiz uchun bizda keragidan ortiqroq imkoniyatlar ham mavjud. Ulardan har tomonlama unumli foydalana olsak va Yangi O'zbekistonimizning rivojiga o'z hissamizni qo'shsak jahon miqiyosidagi eng kuchli davlatlar bilan bemalol raqobatlashib ulardan ustun kela olamiz.

# *«Development of science» international conference*

Bu biz yoshlarning asosiy vazifasi hisoblanadi, negaki, tarixdan ma'lumki xalqimizning boshimizga ne-ne og'ir kunlar tushmagan; kamsitishlar, xo'rلانishlar va aybsiz ma'rifatparvarlarning qatag'on qilinishi – bularning barchasi uchun ham ona diyorimiz biz kutgandan-da yuksak marralarni egallashi lozim. Darhaqiqat, mustaqillikka erishish yo'lida Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning olib borgan mukammal tashqi siyosatlari mammalakatimiz mustaqilligining asosiy tayanchi bo'lib xizmat qilmoqda hamda 2016-yildan buyon bu ishlarni har tomonlama takomillashtirib davom ettirib kelayotgan muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev davlatimiz tarqqiyotining yanada gullab-yashnashi uchun ulkan ishlarni amalga oshirmoqdalar. Bularga misol tariqasida biz yoshlarga berilayotgan imkoniyatlarni aytsak hech ham mubolag'a bo'lmaydi. Biz yoshlar, kelajakning ulkan yaratuvchilar, tashabbuskorlari sifatida o'z bilimlarimiz bilan ma'rifatli jamiyat qura olishimizni hamda Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning: 'Biz hech kimdan kam emasmiz va kam bo'lmaymiz ham' – degan fikrlarni yana bir bor isbotlashimiz darkor va biz buni, albatta, qila olamiz.

Bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar, yoshlarning o'z bilim va ko'nikmalar bilan jamiyatimiz taraqqiyoti uchun qo'shayotgan hissalari, yaratayotgan yangiliklari Yangi O'zbekistonimizdagi ma'rifatli jamiyatni buniyod etishdagi va uni takomillashtirishdagi ilk qadamlar desak ham bo'ladi. Yoshlarimizning o'z bilimlarini oshirishlari nafaqat o'zlar uchun, balki oilalari va vatani uchun ham keng va cheksiz imkoniyatlarini olib keladi. Davlatimizning Birinchi Prezidenti Islom Karimovning; "Farzandlarimiz bizdan ko'ra kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli bo'ishlari shart", - degan jumllari, shu bilan birga prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Ta'lim tizimini yanada chuqurroq va har tomonlama takomillashtirayotganlari yoshlарimizning bilimlarini oshirish va ularni yetuk inson qilib tarbiyalash uchundir. Zotan, yaxshi ta'lim-tarbiya olgan, zamonaviy bilimlarni egallab borayotgan avlod yorqin kelajak uchun ishonchli va mustahkam kafolat bo'la oladi. Shu jihatdan bugun ham yoshlar masalasi davlat siyosati darajasidagi maqomini saqlab turibdi, shuningdek yosh avlodning yetuk salohiyatli, teran tafakkurli, ilm-u ma'rifatli, yuksak ma'naviyatli barkamol shaxs bo'lib ulg'ayishi uchun zarur bo'ladigan barcha shart-sharoitlar yaratib berilayotganinig o'zi ham biz yoshlarni yanada bilimliroq bo'lishga undaydi.

Yoshlарimizning ularga berilayotgan imkoniyatlardan ongli ravishda emas, o'z qiziqishlarini qondirish maqsadida foydalananib, zararli yo'llarga kirib qolayotganligi Yangi O'zbekistonimizda ma'rifatli jamiyat qurishimizda taqdim etilayotgan yangiliklarni yo'qqa chiqarish mumkin. Butun dunyo bo'ylab takomillashib borayotgan axborot texnologiyalari, aloqa va telekommuniyakatsiyalar murakkab ishlarni har tomonlama qulay va foydali tomonga o'zgartirmoqda, qo'l mehnatini kamaytirgan holda, butun dunyo aholisining ehtiyojlarini qondira olmoqda. Afsuski, "telefon" va "internet" degan tushunchalar ba'zi yoshlарimizning ongini zaxarlabgina qolmay, ularni ba'zi diniy niqob ostida faoliyat yuritiyoqan diniy oqimlar ta'siriga tushib qolishiga ham sabab bo'lmoqda. Ming afsuslar bo'lsinki, yolg'on yo'lni tanlayotgan, telefonagi ba'zi o'yinlar bilan o'zini ovutib, vaqtini behuda sarflayotgan yoshlарimiz bu ishlardan naf yo'q ekanligini, qilayotgan ishlari ularning bebaho hisoblanmish vaqtlarini o'g'irlayotganini o'z vaqtida anglab yeta olmaydilar. Bu kabi yomon yo'lga kirib qolayotgan yoki vaqtini behuda sarflayotgan bolalar bilan alohida tushuntirish ishlарini olib borish kerak. Bu kabi bolalarning ota-onalari ham ularga befarq bo'lмаган holda bolalarning vaqtini to'g'ri taqsimlab berishi kerak, ya'ni bu kabi bolalar bo'sh vaqtarda foydali mashg'ulotlar bilan shug'ullansa, bu turdagи zararli o'yinlarni tashlashi ham oson bo'ladi. Shuningdek, ota-onalar va maktab o'qituvchilar bolalarning vaqtini unumli o'tkazish maqsadida, bir-biri bilan kelishgan holda ish olib borsalar

# «Development of science» international conference

foydali bo'lar edi. Bugungi kunda imkoniyatlardan oqilona foydalana oladigan yoshlarimiz IT sohasida o'zlarining barcha mahoratlarini ko'rsatgan holda, mamlakatimiz rivojiga o'z hissalarini qo'shmoqdalar. Biz yoshlarga, kelajakning yorqin yulduzlariga juda ko'plab yaratilayotgan sharoitlaridan yana biri shundaki, yoshlarimizning til o'rganishga bo'lgan qiziqishlari har tomonlama qo'llab quvvatlanmoqda, bunga javoban juda ko'plab yoshlarimizning til o'rganishga bo'lgan qiziqishlari va intilishlari oshib bormoqda hamda ular biz kutgandanda yuqori marralarni zabit etishmoqda. Ularning intishlarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, xorijiy davlatlar bilan diplomatik shartnomalar ham imzolanmoqda. Ularga misoli tariqasida "FLEX – Kelajak liderlari almashinuv" nomli o'quv dasturini keltirib o'tishimiz lozim. Bunda yoshlarimizning til bilish darajalari test sinovlari orqali bosqichma-bosqich tanlab olinadi va grant asosida Amerika Qo'shma Shtatlariga o'qishga yuboriladi. Yoshlarning til ko'nikmalarini oshirib borishlari ma'rifatli jamiyatni batpo etishimizda asosiy rol o'ynaydi.

Bugungi shiddatli davrda chinakam ma'naviyatli va ma'rifatli odamlargina inson qadrini bilishi, o'z milliy qadriyatlarini, milliy o'zligini anglashi, erkin va ozod jamiyatda yashash, mustaqil davlatimizning jahon hamjamiyatida o'ziga munosib o'ren egallashi uchun fidoiylik bilan kurasha olishi lozim. Yoshlarimizning fidoiy va ma'rifatli bo'lib tarbiyalanishi jamiyatimiz tarqqiyoti uchun har tomonlama zarur. Yoshlarga berilgan imkoniyatlarning Konstitutsiyamizda qonun yo'li bilan mustahkamlanganligi yangi bunyod etilajak ma'rifatli jamiyatimizning asosi bo'lib xizmat qiladi. "Har kim bilim olish huquqiga ega. Bepul umumiy ta'lim olish davlat tomonidan kafolatlanadi. Maktab ishlari davlat nazoratidadir", - deyiladi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 41-moddasida.

Biz buyuk tarix, buyuk davlat, buyuk madaniyat yaratgan, dunyo tamaddun rivojiga ulkan hissa qo'shgan, adolatni qadrlaydigan xalq farzandlari ekanmiz, Yangi O'zbekistonimiz uchun marifatli jamiyatni barpo etishda o'z hissamizni qo'shishdanda ulkanroq vazifamiz yo'qdir. Ma'rifatli jamiyatni bunyod etishda ishtirok etar ekanmiz, avvalambor yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyevning; "Ilm-fan – taraqqiyot asosi. Zamonaviy ilm-fan yutuqlariga, innovatsion go'yalarga tayanmagan davlatning ham, jamiyatning ham kelajagi yo'q. Faqat ilm va ma'rifat, intelluktual salohiyat, har tomonlama bilimli kadrlar hisobidan biz O'zbekistonni yangi taraqqiyot bosqichiga olib chиqa olamiz", - degan fikrlarini o'zimizga shior qilgan holda olg'a qadam tashlamog'imiz lozim. Oldiga katta marralarni qo'yan Jannatmakon diyorimiz bugungi rivojlanib borayotgan jahon miqiyosida o'z o'rnini egallagan holda, yaqin kelajakda bundanda yuqori cho'qqilarni zabit etishimizga ishonch bildirilmoqda. Har qanday soha bo'lishidan qat'iy nazar, biz yoshlar o'z iste'dodimiz va cheksiz qobiliyatlar sohibi ekanligimizni butun dunyoga namoish eta olsak bas, ma'rifatli jamiyatimiz, albatta, gullab-yashnaydi. Bugungi kunda o'z iste'dodlari va ajoyib qobiliyatlar bilan butun dunyoni lol qoldirayotgan yoshlarimiz ham bor oramizda. Ular sportning turli yo'nalishlari, shaxmat, fan olimpiadalari va shu kabi yo'nalishlarda yurtimiz bayrog'ini g'urur bilan ko'klarga ko'tarmoqdalar. Yaqin kunlarda shaxmatchilar o'rtasida o'tkazilgan katta championatda yurtimiz faxri hisoblangan Nodirbek Abdusattorov birinchi o'rinni egalladi va maxsus Prezident sovg'alari bilan taqdirlandi. Mana shunday yoshlarimizning soni qancha ko'p bo'lsa, biz ulardan shunchlar faxrlanamiz. Biz bu yutuqlarni mamlakatimizda yoshlarning har tomonlama yetuk, komil, sog'lom va ma'rifatli bo'lishlari uchun olib borilayotgan katta islohotlarning natijasi deb bilsak bo'ladi. Shuningdek, biz yoshlardan faqatgina harakat va intilish talab etilmoqda. Bu ulkan harakatlarni amalga oshirishda bizga hamisha ilm-ma'rifat yaqin yo'ldosh bo'lishi kerak. Negaki, ilm-ma'rifatli inson har bir ishni qilayotganda o'z bilimi va kuchiga tayanadi, yomon yo'llar orqali maqsadiga erishishni ko'zlamaydi va hech qachon rivojlanishdan to'xtamaydi. So'zlarimizning dalili sifatida Prezidentimiz

# *«Development of science» international conference*

Shavkat Mirziyoyevning: "Bir narsani bilishimiz kerak; ilmsiz, innovatsiyasiz, oldimizga qo'ygan maqsadlarga hech qachon erisha olmaymiz. Hisobot uchun emas, natija uchun ishlash kerak", - degan jumlalarini keltirishimiz mumkin. Bizga taqdim etilayotgan imkoniyatlardan oqilona foydalanar ekanmiz, bizning qilayotgan har bir yangiliklarimiz nafaqat o'zimiz uchun balki Yangi O'zbekistonimiz uchun ham katta yutuqlarni olib kelibgina qilmay ma'rifatli jamiyatni bunyod etib uni takomillashtirishimizda muhim ahamiyat kasb etishini unutmashligimiz darkor. Bundan tashqari, har doim harakatda va izlanishda bo'lishimiz kerak ekanligini yoddha tutaylik.

Globallashib borayotgan zamonda yashar ekanmiz, axborot texnologiyalari, telefon, telekommunikatsiya va "o'rgimchak to'ri" deb atalmish internet tarmoqlari rivojlanib, kundan-kunga yangi texnikalar kashf etilayotganining guvohi bo'lmoqdamiz. Yuqorida aytib o'tilgan barcha yangi innovatsiyalardan jahon miqiyosida katta o'rirlarni egallab turgan mamlakatlar ustalik bilan foydalanishmoqda. Bizning ona diyorimiz O'zbekistonda ham yangi texnologiyalar kashf etilibgina qolmay, xorij tajribasi ham chuqur o'rganilmoqda. Informatsion texnologiyalarning yanada kengroq qirralarini ochish va o'rganish maqsadida IT sohasiga qiziquvchilar o'rtasida "IT – bog' bo'lsa, bog'boni sizsiz" nomli bellashuvlar ham tashkil etilmoqda. Bundan ko'zlangan maqsad shuki, yoshlarimizning nimalarga qodir ekanliklarini ko'rsatib va mamlakatimizning yutuqlari sonini ko'paytirgan holda dunyo miqiyosidagi rolini yanada kengaytirishdir. Yurtimizning porloq kelajagi hisoblangan biz yoshlar o'z bilimlarimizni har bir soha bo'yicha mustahkamlab borar ekanmiz, Yangi O'zbekiston – ma'rifatli jamiyatni bunyod etayotganda har tomonlama kuchli ekanligimizni ko'rsata olishimizga hech shubham yo'q. Negaki, jamiyat kuchli va ma'rifatli bo'lsa, unda istiqomat qilayotgan shaxslar aqli va kamtar bo'ladi. Ma'rifatli jamiyatda kamol topgan har bir bolakay kelajakda o'z bilimlari va yutuqlari bilan ma'lum bir kasb egasi bo'ladi. Mana shunday jamiyatda unib o'sgan yoshlarimizning yangi barpo etayotgan ma'rifatli jamiyatini hech bir tashqi yovuz kuch buza olmaydi, chunki bunday jamiyatning boshlang'ich nuqtasi mukammal va sof bilimlar asosida tashkil topganligi, shuningdek, ushbu ma'rifatli jamiyatning har bir pog'onasi yurtimizning kelajagi, biz yoshlarning kuchli bilimlari zamirida yaratilganligi buni isbotlay oladi.

Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar va yangiliklardan ustalik bilan foydalangan holda yurtimizda ma'rifatli jamiyatni bunyod etishda yoshlarning rolini oshirishimiz kerak. Turli xil telefon o'yinlari yoki enternetdagi yoshlar ongini zaxarlaydigan videolar bilan o'z vaqtini behuda sarflaydigan tengdoshlarimizni ham yangi innovatsiyalar yaratishga qiziqtirishimiz lozim. Bu kabi yoshlarga telefonidan foydali ishlar uchun ham foydalanish mumkin ekanligini ko'rsatishimiz mumkin. Ma'rifatli jamiyatni bunyod etishdek ulkan rejani amalga oshirar ekanmiz, biz yoshlar bunda o'z maqsad va vazifalarmizni puxta o'rgangan holda ish olib borishimiz kerak. Bugungi kunda bizning asosiy vazifamiz esa bilim olishdir, chunki ilmli inson hech qachon murakkab vaziyatlarda o'zini yo'qotmaydi va muammolar yechimini topishiga harakat qiladi. Shuningdek, turli xil badiiy asarlarni mutolaa qilish ham dunyo qarashimizni kengaytiribgina qolmay, uzoqni ko'zlab ish yuritishimizga yordam beradi. Shunday qilib bizning birinchi va asosiy vazifamiz bilimli inson bo'lish va uni amalda qo'llay bilishdir. Qudratli bilimlarimizni yangi innovatsiyalar bilan uyg'unlashtirgan holda juda ulkan ishlarni amalga oshira olamiz. Jamiyatimizdagи barcha bolalarni mana shunday ruhda tarbiyalasak, biz yoshlar barpo etayotgan ma'rifatli jamiyat davlatimizning asosiy tayanchiga aylanadi.

# *«Development of science» international conference*

Xulosa o'rnida shuni aytish lozimki, biz yoshlari, kelajakning ulkan yaratuvchilari bo'libgina qolmay, butun jahonga yurtimiz salohiyatini ko'rsata oladigan kuchli bilimga egamiz. Bizga yaratib berilayotgan imkoniyatlardan unumli foydalanib, doimo harakatda davom etar ekanmiz, biz yoshlari asosida barpo bo'lajak ma'rifatli jamiyatimiz eng kuchlilardan bo'la oladi. Ma'rifatli jamiyatda yashagan har bir inson o'z qadrini va odamlarning qadrini biladi hamda o'z mamlakati taraqqiyotiga hissasini qo'shadi. Biz buni yangi 2022-yil nomi bilan keltirishimiz mumkin—"Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili". Jamiyat ma'rifatli bo'lar ekan, mahallalar va unda istiqomat qilayotgan fuqorolar ham bir-birlarini qadrlashlari turgan gap. Qadrli tengdoshlarim, bizga yaratilayotgan imkoniyatlardan unumli foydalangan holda o'z iste'dodlarimizni namoyish etaylik, chunki bizdan faqatgina harakat va bilimni chuqur egallah talab etilyapti. Shu o'rinda, yoshlardan ham ushbu keng imkoniyatlardan oqilona foydalanib, chuqur bilim olib, oilasi va jamiyatga nafi tegadigan, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga amal qiladigan, vatan ravnaqiga kamarbasta chin inson, buyuk ma'rifatparvar, ajdodlarimizga munosib avlod bo'lib yetishishini umid qilib qolamiz.

Foydalilanigan adabiyotlar:

- 1.O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.-T.:O'zbekiston,2015.
- 2.<https://arm.sies.uz>
- 3.<https://yuz.uz/news/ilm-fan va innovatsiyalarni rivojlantirish masalalari>.
- 4.<https://daryo.uz/2017/12/07-Shavkat Mirziyoyev:ilm-fansiz, ma'rifatsiz davlatning kelajagi yo'q/>
- 5.<https://islimkarimoz.uz/memory/>
- 6.<https://uz.m.wikipedia.org-Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch/>